

OLMAXONSIMONLAR OILASI

Mirboltayeva Nasiba Mirsaid qizi

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi bo'lim mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmaxonsimonlar oilasi, ularning asosiy xususiyatlari, yashash tarzi, boshqa tur vakillaridan farqli jihatlari, olmaxonsimonlar oilasi vakillarining qishloq xo'jaligi va insonga bo'lgan zararli ta'sirlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о семейства беличьих, их основных характеристиках, образе жизни, отличиях от других представителей вида, вредном воздействии представителей семейства беличьих на сельское хозяйство и человека.

Annotatsion: This article provides information about the apple family, their main characteristics, lifestyle, differences from other representatives of the species, and the harmful effects of representatives of the apple family on agriculture and humans.

Kalit so'zlar: Olmaxonlar, sug'urlar, [burunduqlar](#), yumronqoziqlar, planyor qanotlar, tropic o'rmonlar, oziqlanish, ko'payish, cho'chqayong'oq, qarag'ay g'uddasi ensafalit kasalligi,

Ключевые слова: семейства беличьих, боярышники, носороги, клубнелуковицы, планктонные крыланы, тропические леса, питание, размножение, борщевик, Сосновый бор энцефалит,

Keywords: Apple trees, hawthorns, rhinoceroses, corms, planktonic bats, tropical forests, nutrition, reproduction, hogweed, Pine forest encefalite.

Olmaxonsimonlar "Sciuridae" kemiruvchilar oilasiga mansub. Gavdasining uzunligi 6—60 sm bo'lib, 25 ga yaqin urug'i bor. Jumladan, olmaxonlar, [burunduqlar](#), sug'urlar, ingichka barmoqli yumronqoziqlar va boshqalar kiradi. [Yevrosiyo](#), Afrika, Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikaning shimoliy qismida mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalardagi o'rmonlar, ochiq tekisliklar, tundra va baland tog'larda 3800 m balandlikkacha tarqalgan.

Olmaxonlarning turlaridan sichqonsimon olmaxon, bog' olmaxoni, o'rmon olmaxoni, yong'oqzor olmaxoni va polchoq olmaxonlari uchraydi. Olmaxonlar kemiruvchilarning o'zgacha oilasini tashkil qiladi. Ular ikkita asosiy guruh — yer va daraxt olmaxonlariga bo'linadi. Yer olmaxonlariga sug'ur, burunduq, dasht itlari kiradi. Daraxt olmaxonlari orasida mayda malla, kulrang, tulkisimon va katta quloqli olmaxonlar keng tarqalgan. Ular daraxt kovaklarida yoki o't-o'lanlardan to'qilgan inlarda yashaydilar. Daraxtlarda asosan olmaxonlar, burunduqlar, yerda esa, sug'urlar, yumronqoziqlar hayot kechirishadi. Ular meva, [urug'](#), [hasharot](#) va boshqalar bilan

oziqlanadi. Bahorda ular ko‘pincha daraxtning tepasida o‘zi uchun boshqa uya quradi. U yerda to‘rt—oltita bolasidan iborat avlodini yetishtiradi. Zararkunanda malla olmaxonlar ko‘pincha qushlarning tuxum va jo‘jalarini yeydi. Biroq olmaxonlarning ko‘pchiligi asosan cho‘chqayong‘oq, qarag‘ay g‘uddasi va yong‘oqlari bilan oziqlanadi. Olmaxonlar sovuq oylar uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat g‘amlashi kerak. Yilda 1-marta may oyida 3-6 ta bola tug‘adi. Olmaxonlarning ayrimlari bog‘dorchilik va tog‘lardagi mevalikka zarar keltiradi.



Daraxt olmaxonlari qishni, odatda barg va novdalar to‘shalgan birorta daraxt kovagida o‘tkazadi. Olmaxonlar ayrim davlatlarning bog‘ va o‘rmonlarida shunchalik odatiy ko‘rinadiki, go‘yo bu mamlakatni ularning vatani deb o‘ylash mumkin. Aslida esa olmaxonlar Avstraliyadan tashqari dunyoning barcha hududlarida yashaydi.

Olmaxonlarning juda ko‘p turi mavjud. Ular mushuk kattaligida yoki sichqon kabi kichik ham bo‘lishi mumkin. Ularning mo‘ynasi yumshoq va paxmoq yoki tikanakli igna kabi bo‘lishi mumkin. Ular shoxdan shoxga sakrab yoki parashyut vazifasini bajaradigan teri burmalari yordamida bir daraxt uchidan ikkinchisiga uchib o‘tishi mumkin. Ularning ba‘zilari hatto yerda ham yashaydi. Ammo olmaxonlarning deyarli barchasi uzun paxmoq dumli va munchoq ko‘zli beozor, behalovat mayda hayvonlardir.

Uchar olmaxonlar ham mavjud bo‘lib, ular boshqalardan biqinidagi yoyiladigan teri burmalari bilan farq qiladi. Olmaxon panjalarini yozganda, ular orasidagi burmalar planyor qanotlar vazifasini bajaradi va olmaxonning havoda uchib o‘tishiga yordam beradi. Uchar olmaxonlar Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyoning issiq o‘lkalarida yashaydi. Aksar holatda ularni ko‘rish qiyin. Chunki ular kun davomida uxlaydi. Shuningdek, Osiyoda juftlashish davrida nar qushlar singari rangini o‘zgartiradigan yana bir qiziqarli olmaxon turi ham mavjud. Olmaxonlarning ko‘zi va eshitish organi yaxshi rivojlangan. Shuning uchun ular tunda faol bo‘lishadi.



Ko‘pchilik turlari qishda uyquga ketadi. Ayrim turlari qishga oziq g‘amlaydi. Bularga burunduqlar misol bo‘la oladi. Burunduqlar

kemiruvchilar turkumining tatinsimonlar oilasi urug'iga mansub bo'lib, ular Shimoliy yarim shardagi o'rmonlarda tarqalgan. Rossiyaning sharqiy qismidagi o'rmonlarda Osiyo burundug'i uchraydi. Tanasining uzunligi 14 sm, dumi 9 sm ga yaqin, orqa qismida beshta qora yo'li bo'ladi. Qishda uyquga ketadi. Nina barglilar urug'i, kengbargli daraxtlar bargi, kurtagi va mevasi bilan oziqlanadi. Qishga 4 kg gacha oziq asosan kedr yong'og'i to'playdi. Burunduqlar lunjida oziq olib yuradigan xaltasi bo'ladi. O'rmonchilik va qishloq xo'jaligiga qisman ziyon keltiradi. Osiyo burunduqlari kana ensefalitining ikkinchi darajali tarqatuvchisi hisoblanadi.

Hozirgi kunda olmaxonsimonlarning 6 turi Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan. Ulardan ko'k sug'ur O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Ko'k sug'ur dengiz sathidan 2200–3600 metr balandliklarda tog' dashtlari, toshqoyalar etaklarida, qorliklarga yaqin hududlarda yashaydi. Mitti jonivor o't-o'lanlar, boshoqli o'simliklar, hasharotlar bilan oziqlanadi. Mart-avgust oylarida faol, qolgan paytda u inidan chiqmaydi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ko'k sug'urning yo'qolib borishiga tabiiy kushandasi bo'ri, tulki, burgut va ilvirslar bilan birga yaylovlarning qisqarib ketayotgani, noqonuniy ovchilarning ayovsizligi ham sabab bo'lmoqda. Chotqol tog'i va Ohangaron yassi tepaliklarida 20 ming dona ko'k sug'ur yashamoqda. Ular davlat muhofazasiga olingan. Olmaxonlar oilasi vakillarining tarqalishi juda keng, ammo ularni Antarktida va Avstraliyada, shuningdek, qo'shni orollarda topib bo'lmaydi. Aks holda, bu yoqimli jonzotlar deyarli barcha zonalarda - shimolning qorli hududlaridan tortib janubning salqin cho'llarigacha o'zlarini ajoyib his qilishadi.

Xulosa qilib aytsak, tabiatimizda har bir tirik mavjudodning o'rni beqiyos. Olmaxonsimonlar ham tabiat uchun foyda keltiruvchilardan biri hisoblanadi. Yong'oqlar terib turli joylarda berkitadilar va tabiatda daraxtlar va o'rmonlar ko'payishga xizmat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Энциклопедия Животных Любовь Качусова (Князева) 2018 г.
2. Вакаи вертуал мактаби “Иеличя семья” 1999 г
3. <https://ru.wikipedia>.